

ICHKI MIGRATSIYA TUSHUNCHASI VA UNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti **Pardaboyeva Nodira Mirzabek qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki migratsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat va davlat rivojlanishidagi o'rnini hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ichki migratsiyani huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari, ushbu jarayonni boshqarishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Maqolada ichki migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, hududlararo aholi harakatining sabablari va oqibatlarini ko'rib chiqilib, uni samarali tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari ichki migratsiya sohasida qonunchilikni rivojlantirish va amaliyotni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki migratsiya, migratsiya jarayonlari, huquqiy tartibga solish, migratsiya siyosati, aholi harakati, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, hududiy rivojlanish, mehnat migratsiyasi, davlat boshqaruvi, qonunchilik.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность понятия внутренней миграции, ее роль и значение в развитии общества и государства. Также анализируются теоретические основы правового регулирования внутренней миграции, приоритетные направления государственной политики в управлении этим процессом. В статье исследуются социально-экономические факторы внутренней миграции, причины и последствия межрегионального перемещения населения, а также предлагаются меры по совершенствованию механизмов ее эффективного регулирования. Результаты исследования служат для дальнейшего совершенствования законодательства и практики в области внутренней миграции.

Ключевые слова: внутренняя миграция, миграционные процессы, правовое регулирование, миграционная политика, перемещение населения, социально-экономические факторы, территориальное развитие, трудовая миграция, государственное управление, законодательство.

Abstract: This article covers the essence of the concept of internal migration, its role and significance in the development of society and the state. It also analyzes the theoretical foundations of the legal regulation of internal migration, the priority areas of state policy in managing this process. The article examines the socio-economic factors of internal migration, the causes and consequences of interregional population movement, and puts forward proposals for improving the mechanisms for its effective

regulation. The results of the study serve to further improve the development of legislation and practice in the field of internal migration.

Keywords: internal migration, migration processes, legal regulation, migration policy, population movement, socio-economic factors, territorial development, labor migration, public administration, legislation.

Hozirgi davrda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadallashuvi aholining hududiy harakatchanligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan ichki migratsiya masalasi nafaqat demografik, balki iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham muhim tadqiqot ob'ekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Har qanday davlatda ichki migratsiya jarayonlari aholi joylashuvi, mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi hamda hududiy rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Avvalambor migratsiya so'zi tilga olinganda uning tushunchasiga to'xtalishimiz kerak. Migratsiya — bu insonlarning bir joydan boshqa joyga, odatda doimiy yoki uzoq muddatli yashash maqsadida ko'chib o'tishi jarayonidir. Bu jarayon tabiiy (masalan, iqlim o'zgarishi, yerning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'zgarishi) yoki ijtimoiy-iqtisodiy (masalan, ish o'rinlari, ta'lim, sog'liqni saqlash imkoniyatlari) omillar ta'sirida sodir bo'lishi mumkin.¹

Migratsiya murakkab jarayon bo'lib uning bir qancha turlari bor, xususan:

Ichki migratsiya – bir davlat ichidagi joylar o'rtasida ko'chib o'tish. Bu shaharlarga ko'chish, qishloqdan shaharga, yoki bir viloyatdan boshqa viloyatga o'tish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Xalqaro migratsiya esa bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishni anglatadi. Bu migratsiya, odatda, iqtisodiy, siyosiy, yoki ijtimoiy sabablar bilan sodir bo'ladi.

Voluntary migratsiya (ixtiyoriy migratsiya)da migrantlar o'z ixtiyori bilan, yaxshiroq imkoniyatlar yoki shaxsiy sabablarga ko'ra ko'chib o'tishadi.

Involuntary migratsiya (majburiy migratsiya)da insonlar majburiy ravishda, urush, tabiiy ofatlar, siyosiy yoki diniy ta'qiblar sababli ko'chib o'tishadi. Bunga qochqinlik va hayot saqlash uchun amalga oshirilgan migratsiyalar kiradi.

Mehnat migratsiyasi – ish izlab boshqa mamlakatga ko'chib o'tish. Bunga, odatda, yirik iqtisodiy tarmoqlarda ishlashga talab bo'lgan migratsiya kiradi (masalan, qurilish, qishloq xo'jaligi).

Refugiy (qochqinlik) migratsiya – urushlar, tabiiy ofatlar, siyosiy ta'qiblar yoki diniy kamsitishlar tufayli o'z vatanini tark etgan odamlarning migratsiyasi hisoblanadi.

Qayta migratsiya – migrantlar o'z vatandoshlariga qaytishi, ko'pincha iqtisodiy yoki siyosiy sabablarga ko'ra amalga oshiriladi.

¹ <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/download/82341/83944/109403>

Ichki migratsiyaga to'xtaladigan bo'lsak, ichki migratsiya (ingl. Internal migration) – bu aholining o'z mamlakati ichida doimiy yashash joyini uzoq muddatga yoki bir umrga o'zgartirishi bilan kechadigan aholi manzilgohlari o'rtasidagi harakatini majmualari ifodalaydi. Ichki migratsiyaga industrilashtirish, urbanizatsiya jarayonlari, transport rivojlanishi sabab bo'lmoqda. Uning asosiy oqimlari viloyatlararo, tumanlararo, va tumanlar ichida, ularning har birida esa-qishloq va shahar orasida, shaharlar o'rtasida, qishloq aholi punktlari o'rtasida va boshqalarda aholining qayta taqsimlanishi hisoblanadi. O'zbekistonda aholining ijtimoiy va hududiy mobilligini rivojlantirish, qishloqda yashovchilarning kasbiy malakasini oshirish, mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanishga ko'maklashishda qishloqdan shaharga migratsiyasi asosan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ichki migratsiya qoidalarga binoan miqyosi bo'yicha, tashqi migratsiyadan kamroq emas, hatto undan oshib ketadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki migratsiya asosan iqtisodiy omillar bilan belgilanadi, ya'ni aholi daromad manbalari ko'proq bo'lgan hududlarga intiladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalarining sifati, tibbiy xizmatlarning rivojlanganligi, yashash sharoitlari va infratuzilma darajasi aholining qaror qabul qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada qishloq hududlaridan yirik shaharlarga ko'chish holatlari keng tarqalgan bo'lib, bu urbanizatsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi.

Biroq ichki migratsiyaning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlari ham mavjud. Aholining yirik shaharlarga ortiqcha to'planishi uy-joy taqchilligi, transport tizimidagi yuklama ortishi hamda ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Aksincha, ayrim hududlarda aholi sonining kamayishi iqtisodiy faollikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois ichki migratsiya jarayonlarini muvozanatli tarzda boshqarish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ichki migratsiyani huquqiy tartibga solish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu jarayonni tartibga solishda asosiy maqsad fuqarolarning erkin harakatlanish huquqini ta'minlash bilan birga, hududiy rivojlanish muvozanatini saqlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida ichki migratsiya ro'yxatga olish tizimi, bandlik siyosati va uy-joy dasturlari orqali tartibga solinadi. Xususan, doimiy va vaqtinchalik propiska tizimi aholining harakatini hisobga olish imkonini beradi.

Ichki migratsiyani huquqiy tartibga solish masalasi davlatning konstitutsiyaviy tuzilishi, inson huquqlarining asosiy prinsiplarini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari hamda demografik siyosat bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p qirrali va murakkab ijtimoiy-huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur institutning nazariy asoslarini shakllantiruvchi omillar, avvalo, shaxsning erkin harakatlanish huquqining mohiyatidan kelib chiqadi, chunki ichki migratsiya davlat chegaralaridan tashqariga chiqmasdan, mamlakatning o'z hududi ichida amalga oshiriladigan makoniy harakat sifatida insonning asosiy erkinliklaridan biri bo'lmish

“yurish va yashash joyini erkin tanlash” huquqining amaliy ifodasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 32-moddasida “Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. Har kim O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno” deb belgilangan bo‘lib, mazkur norma ichki migratsiyani huquqiy tartibga solishning poydevori sifatida e’tirof etiladi. Shu ma’noda, ichki migratsiyaning nazariy talqini nafaqat konstitutsion huquqlar tizimi, balki davlatning aholi joylashuvi siyosati, hududiy muvozanat, iqtisodiy resurslar taqsimoti va jamoat xizmatlari samaradorligi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Huquqshunos olimlar fikricha, shaxsning erkin harakatlanish huquqi demokratik jamiyatning asosiy belgisi bo‘lib, ichki migratsiyani tartibga solish har qanday holatda ham ushbu erkinlikni amalda ta’minlashga qaratilishi kerak, aks holda mazkur jarayon davlat tomonidan erkinliklarni nojo‘ya cheklash vositasiga aylanishi xavfi paydo bo‘ladi.² Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ichki migratsiyaning huquqiy tartibga solinishi nazariy jihatdan ikki asosiy unsurga tayanadi: birinchisi — insonning erkin harakatlanish huquqini kafolatlash, ikkinchisi esa — davlatning hududiy rivojlanish, ijtimoiy himoya, urbanizatsiya va iqtisodiy boshqaruv sohalaridagi manfaatlarini ta’minlashdir.

Zamonaviy sharoitda ichki migratsiyani boshqarishda faqat ma’muriy choralar yetarli emas. Bu borada iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Masalan, kam rivojlangan hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmani yaxshilash orqali aholi oqimini muvozanatlashtirish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda ichki migratsiyani tushuntirishga qaratilgan bir qator nazariy yondashuvlar mavjud. Iqtisodiy yondashuv migratsiyani daromadlar farqi bilan izohlaydi. Demografik yondashuv esa aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlarga urg‘u beradi. Sotsiologik yondashuvda esa insonlarning ijtimoiy moslashuvi, yangi muhitga integratsiyalashuvi masalalari asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi ichki migratsiya jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti tadqiqotlarida migratsiya jarayonlarini kompleks boshqarish zarurligi ta’kidlanadi. Unga ko‘ra, migratsiya nafaqat muammo, balki iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ham qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ichki migratsiya murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, uni samarali boshqarish uchun puxta huquqiy asoslar va ilmiy yondashuvlar zarur. Ichki migratsiyani tartibga solish tizimini takomillashtirish orqali hududlar

² Xolmurodov. A. Ichki migratsiya va erkin harakatlanish huquqi.: Toshkent, 2018, 21–22-bet.

oʻrtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish, aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Migratsiya jarayonlarini tartibga solish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlar.
3. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Yuldashev Oʻ. *Migratsiya va demografiya asoslari*. – Toshkent, 2019.
5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotlari.
6. Xalqaro migratsiya tashkiloti materiallari.
7. Xolmurodov. A. Ichki migratsiya va erkin harakatlanish huquqi.: Toshkent, 2018, 21–22-bet.
8. <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science/innovative/article/download/82341/83944/109403>